



UO'K: 378.014.15

BO'LAJAK O'QITUVCHILARNI TARIXIY VA MA'NAVIY IDEALLARGA AKSIOLOGIK MUNOSABATINI RIVOJLANTIRISH MODELI**МОДЕЛЬ ФОРМИРОВАНИЯ У БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ ЦЕННОСТНОГО ОТНОШЕНИЯ К ИСТОРИЧЕСКИМ И ДУХОВНЫМ ИДЕАЛАМ****A MODEL FOR DEVELOPING FUTURE TEACHERS' AXIOLOGICAL ATTITUDE TO HISTORICAL AND SPIRITUAL IDEALS**

Tursunova Dilnoza Adhamjon qizi 
Qo'qon davlat universiteti tayanch doktoranti

Annotatsiya

Maqolada bo'lajak o'qituvchilarni tarixiy va ma'naviy ideallarga aksiologik munosabatini rivojlantirishning nazariy-metodologik asoslari, bo'lajak o'qituvchilarni tarixiy va ma'naviy ideallarga aksiologik munosabatini rivojlantirishning metodik tizimi, bo'lajak o'qituvchilarni tarixiy va ma'naviy ideallarga aksiologik munosabatini rivojlantirish samaradorligi o'rganilgan. Shuningdek, bo'lajak o'qituvchilarni tarixiy va ma'naviy ideallarga aksiologik munosabatini rivojlantirish modeli tahlil qilingan.

Аннотация

В статье рассматриваются теоретико-методологические основы формирования ценностного отношения будущих учителей к историческим и духовным идеалам, методическая система формирования ценностного отношения будущих учителей к историческим и духовным идеалам, эффективность формирования ценностного отношения будущих учителей к историческим и духовным идеалам. Анализируются педагогическое содержание и ценностные основы формирования знаний будущих учителей об исторических и духовных идеалах.

Abstract

The article studies the theoretical and methodological foundations of developing future teachers' axiological attitude to historical and spiritual ideals, the methodological system of developing future teachers' axiological attitude to historical and spiritual ideals, the effectiveness of developing future teachers' axiological attitude to historical and spiritual ideals. The pedagogical content and axiological foundations of developing future teachers' knowledge of historical and spiritual ideals are also analyzed.

Kalit so'zlar: tarixiy va ma'naviy ideal, aksiologik munosabat, takomillashtirish, pedagogik, texnologik, model, didaktik, shakl, metod, vosita, baholash.

Ключевые слова: историко-духовный идеал, аксиологическое отношение, совершенствование, педагогический, технологический, модель, дидактический, форма, метод, инструмент, оценка.

Key words: historical and spiritual ideal, axiological attitude, improvement, pedagogical, technological, model, didactic, form, method, tool, evaluation.

KIRISH

Yangi O'zbekiston taraqqiyot bosqichida ijtimoiy-ma'naviy yuksalish milliy o'zlik, tarixiy xotira va qadriyatlar asosida amalga oshirilmoqda. Bu jarayonda yosh avlod ongida milliy qahramonlar va tarixiy ideallarga nisbatan hurmat, sadoqat va ongli yondashuvni shakllantirish dolzarb vazifaga aylangan. Ta'lim jarayonida bo'lajak tarix o'qituvchilari nafaqat tarixiy bilimlarni egallashi, balki ularni aksiologik yondashuv orqali talabalarga yetkazish ko'nikmasini shakllantirishi muhimdir. Bunday kompetensiya, avvalo, tarixiy tafakkur, ma'naviy qadriyatlarga sodiqlik va analitik fikrlash asosida rivojlanadi. Tarixiy merosning qayta tiklanishi va milliy o'zlikni anglash ijtimoiy ongda ijobiy o'zgarishlarga olib kelmoqda. Ushbu o'zgarishlar o'z navbatida yoshlarning qalbi va ongiga chuqur ta'sir etib, ularda kelajakka ishonch, vatanparvarlik, erkinlik va ozodlik tuyg'ularini mustahkamlashga xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

PEDAGOGIKA

Tarixiy va ma'naviy idelallarga doir ilmiy izlanishlarining yoshlar ta'lim-tarbiyasiga ta'siri muammolari B.To'ychiyev, I.Inoyatov, M.Abilov, V.Kaloshin, O.Abdurasulov, A.Sa'diyev, E.Safayeva, N.Remeyev, Y.G'affarov, T.Toshpo'latov, S.Mahkamov R.A.Mulladjonova, O.Musurmonova, N.Ortiqov, B.Xodjayeov, N.M.Egamberdiyeva, Q.Shonazarov, H.Boltaboyev, G.Zaripova, N.Komilov, U.Mansur, U.Mahkamov, S.Nishonova, N.Ortiqov, O.Musurmonova, K.Qilichevalar tomonidan tadqiq etilgan.

Xorijiy olimlardan R.Mixner, S.Kautz, J.Sitser, Fernand Grenand, Frederik Starr, Eyji Mano, Magida Mahluf, Mark Bonnel, Yul Yanssens, Masataka Takeshita, Shi Yunli kabilar talaba-yoshlarning tarixiy va ma'naviy ideallarga aksiologik munosabatini rivojlantirishdagi vazifalar, zaruriy choralar va mavjud muammolarning tahliliga bog'ishlangan ilmiy izlanishlarni amalga oshirganlar.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

“Tarix o'qitish metodikasi” va “O'zbekiston tarixi” fanlari asosida bo'lajak o'qituvchilarda tarixiy va ma'naviy ideallarga aksiologik munosabatni rivojlantirishning asosiy shart-sharoitlaridan kelib chiqqan holda hamda o'qituvchi faoliyatining asosiy tavsifi va natijalariga asoslanib, tizimli yondashuv asosida tarixiy va ma'naviy ideallarga aksiologik munosabatni rivojlantirishning to'rt darajasini ajratib ko'rsatish mumkin:

I. Boshlang'ich – reproduktiv: 1) milliy tarbiya asoslarini nazariy va amaliy o'zlashtirish; 2) pedagogik vazifalarni nostandart tarzda hal etish; 3) pedagogik faoliyatning barqaror bo'lmagan sifat natijalari. Yetakchi faoliyat – reproduktiv.

II. O'rta – produktiv: 1) ma'naviy ideallarga aksiologik munosabatga doir kasbiy ko'nikma va malakalarni egallash; 2) o'z pedagogik faoliyatida amaliyotda mavjud aksiologik ta'lim va tarbiya usullaridan foydalanish; 3) pedagogik vazifalarni qisman nostandart tarzda hal etish; 4) pedagogik faoliyatning alohida turlaridagi samarali ko'rsatkichlar. Yetakchi faoliyat – produktiv.

III. O'rtacha yuqori – produktiv-ijodiy: 1) bir qator yuqori darajada rivojlangan ma'naviy ideallarga doir ko'nikma va malakalar; 2) «Tarix o'qitish metodikasi” va “O'zbekistonning eng yangi tarixi” fanlarida ma'lum va ilg'or tajribadagi faoliyat usullaridan foydalanish, ta'lim-tarbiyaning yangi shakl va metodlarini izlab topish; 3) pedagogik faoliyatning barqaror sifat natijalari. Yetakchi faoliyat – produktiv-ijodiy.

IV. Yuqori – ijodiy daraja: 1) ma'naviy ideallarga aksiologik munosabatga doir yuqori darajada rivojlangan kasbiy ko'nikmalar tizimi; 2) «Tarix o'qitish metodikasi” va “O'zbekistonning eng yangi tarixi” fanlari doirasida va yaxlit tarzda ijodiy faoliyat; 3) pedagogik faoliyatning nostandart va sifat ko'rsatkichlari; 4) yangiliklarni izlab topishdagi samaradorlik. Yetakchi faoliyat – ijodiylik.

Mazkur darajalarga asoslangan holda, biz tizimli yondashuv asosida “Tarix o'qitish metodikasi” va “O'zbekiston tarixi” fanlari asosida bo'lajak o'qituvchilarda ma'naviy ideallarga aksiologik munosabatni rivojlantirishning uch bosqichli modelini aniqlashtirildi.

Maqsadli bosqich – modelning tizim hosil qiluvchi komponenti hisoblanib, “maqsadli-motivatsion komponent” deb nomlangan va bu bosqich interaktiv metod hamda treninglarni foydalangan holda bo'lajak o'qituvchilarni tarixiy va ma'naviy ideallarga aksiologik munosabatini rivojlantirish jarayoni yo'nalishini ta'minlab beradi. Bo'lajak o'qituvchilarni tarixiy va ma'naviy ideallarga aksiologik munosabatini rivojlantirishga ehtiyoj birinchi navbatda, zamonaviy jamiyat ijtimoiy buyurtmasi o'laroq vujudga keladi.

Nazariy bosqich – nazariy-motivatsion komponent orqali asosida ochib erilgan va unda bilimlarni rivojlantiruvchi asoslar malaka talablari, fan dasturlari va o'quv adabiyotlari, mustaqil ta'lim mazmuni va xorij tajribasi hamda 2019-yil 8-oktabrdagi «O'zbekiston Respublikasi oliy ta'limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida»gi PF-5847-son Farmoni nazariy va metodologik asos bo'lib xizmat qildi. Shu standartlar asosida nazariy bosqichni amalga oshirish mumkin bo'ladi.

Mazmunli bosqich – bo'lajak o'qituvchilarni tarixiy va ma'naviy ideallarga aksiologik munosabatini rivojlantirishning uslubiy-didaktik ta'minotini rivojlantirish; interaktiv metod hamda treninglardan foydalanishni joriy etish; talabalarda tarixiy va ma'naviy ideallarga doir bilimlarini rivojlanligini interaktiv metodlar hamda treninglardan foydalangan holda aniqlovchi tajriba-sinov ishlarini tashkil etish, o'tkazish va amaliyotga tatbiq etish kabi vazifalarni bajarishda o'quv-ilmiy,

ijtimoiy-madaniy, faoliyatning turli xil ko'rinishlarida tarixiy tafakkurni shakllantirish, o'quv-uslubiy ta'minotni mazmunan rivojlantirish kabi shart-sharoitlarni yaratish orqali individuallik, rivojlantiruvchi ta'lim, tizimlilik va izchillik, ilmiy asoslilik va amaliy qo'llanish kabi tamoyillarga tayanildi.

Tashkiliy bosqich – bo'lajak o'qituvchilarni tarixiy va ma'naviy ideallarga aksiologik munosabatini rivojlantirish jarayonidagi tashkiliy masalalar va qilinishi lozib bo'lgan ustuvor vazifalar belgilangan bo'lib, unda bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlashni modernizatsiyalash, xalqaro tajribalar asosida o'quv reja, fan dastur va sillabuslarni ishlab chiqish, tarix fanini o'qitishni milliy yuksalish konsepsiyasi bilan integratsiyaalsh, yangi avlod o'quv adabiyotlarini yaratish va ularda tarixni tushunishga yangicha yondashuvlarni olib kirish, raqamli ta'lim, sun'iy intellekt va axborot texnologiyalari imkoniyatlaridan foydalanish va tarixni ma'naviy tarbiya mexanizmiga aylantirish va boshqalar muhim vazifalar sifatida belgilandi.

Baholash bosqichi – bo'lajak o'qituvchilarni tarixiy va ma'naviy ideallarga aksiologik munosabatini rivojlanganligi tegishli usullar va nazorat materiallari asosida o'lchanadi. Bo'lajak o'qituvchilarni tarixiy va ma'naviy ideallarga aksiologik munosabatini rivojlanganlik darajasini obyektiv baholash uchun uning har bir bosqichini aniqlovchi, izlanuvchi va shakllantiruvchi tashxisdan o'tkazish ko'zda tutiladi. Bo'lajak o'qituvchilarni tarixiy va ma'naviy ideallarga aksiologik munosabatini rivojlanganligini quyidagi mezonlar (kognitiv, faoliyali va kreativ) hamda darajalarda (past, o'rta, yuqori) aniqlandi.

Natijada bo'lajak o'qituvchilarni tarixiy va ma'naviy ideallarga aksiologik munosabatini rivojlantirish metodikasi takimillashtirildi.

Bo'lajak o'qituvchilarni tarixiy va ma'naviy ideallarga aksiologik munosabatini rivojlantirishga yo'naltirilgan pedagogik jarayon o'z navbatida texnologik yondashuvga asoslanishi lozim. Tarbiyaga texnologik yondashuv – tarbiya natijalariga asoslanib, tarbiyaning maqsad va vazifalarini oydinlashtirish, tarbiya jarayonining har bir bosqichini alohida-alohida loyihalash, tarbiyaning shakl, metod va vositalarini aniq belgilab olishga qaratilgan tizimli jarayon.

Texnologik yondashuv imkoniyati tarbiya jarayonining o'zida uning ko'p omilliligi – turli-tuman omillar ta'siriga uchrashi, natijalarning tezda namoyon bo'lmasligi, tarbiyachi faoliyatining (bevosita yoki bilvosita) yo'naltirilganligi, ko'p bosqichlilik bilan bog'liq ravishda mujassamdir. Ko'p bosqichlilik talabani u yoki bu sifat haqida tasavvur darajasidan tushunchaga va keyinroq o'zlashtirilganlariga muvofiq harakat qilish ko'nikmasini shakllantirish hamda to'g'ri xulq-atvor odatlarini shakllantirishga o'tish bilan tavsiflanadi. Shunga asosan V.S.Selivanov tarbiya jarayoni, uning bosqichlari ketma-ketligi murakkab o'ziga xoslikka ega ekanligi haqidagi xulosaga keladi. Tarbiya, shaxs sifatlarini shakllantirish emotsional yo'nalganlik, xulqning ma'lum shakliga ijodiy munosabat uyg'otishdan boshlanadi. Ikkinchi bosqich harakatni to'g'ri bajarish malakasini, ya'ni to'g'ri xatti-harakat qilishni mashq qilish sanaladi. Keyinchalik harakatni unga ijobiy munosabat bilan ko'p marta bajarish davomida oqilona xulq-atvorga odatlantiriladi. Tushuncha ni o'zlashtirish (shakllantirish) – tarbiya jarayonining keyingi bosqichi. O'zlashtirilgan tushunchalar asosida ijtimoiy xulq tajribasi tashkil qilinadi.

Bo'lajak o'qituvchilarni tarixiy va ma'naviy ideallarga aksiologik munosabatini rivojlantirishda auditoriyadan tashqari mashg'ulotlar uchun tarbiyaviy vaziyatlar texnologiyasini qo'llash yaxshi samara beradi. Tarbiyaviy vaziyatlar texnologiyasi deganda, axloqiy vaziyatlarni uni hal etish yo'llarini asoslash asosida mustaqil mushohada qilish; ma'lum bir ketma-ketlik, pedagogik jarayonni muntazam nazorat qilib borish va korreksiyalash asosida, pedagog tomonidan qo'llaniladigan xilma-xil metod va usullar yordamida talabalarda madaniy xulq-atvor ko'nikmalarini shakllantirishga imkon beruvchi maqsadga yo'naltirilgan tarzda tashkil etiladigan muammo va yechimlar tizimi tushuniladi. Talabalarda tarixiy va ma'naviy ideallarga aksiologik munosabatni shakllantirish bo'yicha talabalar bilan sinfdan tashqari ishlar jarayonida qo'llaniladigan tarbiyaviy vaziyatlar texnologiyasini modellashtirish pedagogik jarayon ishtirokchilarining subyektiv tarkibi, faoliyatning maqsadga yo'nalganligi, mazmunli (tarixiy va ma'naviy ideallarga aksiologik munosabatni shakllantirishning tuzilmasi va pedagogik shart-sharoitlar, yondashuvlar, shakl va vositalar) va natijaviy komponentlarni hisobga olishni talab etadi.

XULOSA

Yuqoridagilar asosida, Bo'lajak o'qituvchilarni tarixiy va ma'naviy ideallarga aksiologik munosabatini rivojlantirish modeli ishlab chiqildi. Ushbu modelda bo'lajak o'qituvchilarni tarixiy va

PEDAGOGIKA

ma'naviy ideallarga aksiologik munosabatini rivojlantirishni kognitiv, aksiologik, kommunikativ faoliyatga doir, refleksiv usullarga tayanilgan vaziyatli topshiriq, guruhiy munozara. o'quv loyihalar orqali ushbu komponentlarni rivojlantirish orqali erishish mumkin. Tarixiy va ma'naviy ideallariga doir bilimlarni shakllantirishda tarixiy qahramonlar va ijtimoiy liderlarga xos bo'lgan fazilatlarining axloqiy mezonlari sifatida – tarixiy shaxslardagi fidoiylilik, mas'uliyatlilik, qahramonlik, chidamlilik, sadoqat, oriyat vag'urur kabi mezonlar tashkil etadi. Tarixiy ideallar orqali talabalarni tarix faniga qiziqishini o'stirish murakkab pedagogik jarayon sanaladi. Ushbu jarayonni bilish maqsadi o'zidan umuminsoniy, ahloqiy fazilatlarini namoyon etgan tarixiy qahramonlarning hayot faoliyati, o'y xayollari, intilishlari, hayot tarzi, ruhiy kechinmalari asosida talabalarda vatanga sadoqatni tarbiyalashdan iborat ekanligi kelib chiqadi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Kelby Mason, Chandra Sripada, Stefen Stich. The philosophy of Psichologi. N.G. 2016. Лич Д. Прикладной анализ поведения. –М.: Оперант, 2015.
2. Normurodov Q. Tarixiy ong va yosh avlod tarbiyasi // O'zbekistonda pedagogika fanlari jurnali. – 2020. – №3. – B. 22.
3. Tate D. S. Increasing the retention of American Indian students in professional programs in higher education / D. S. Tate, C. L. Schwartz // Journ. Of American Indian Education. – 1993. – Vol. 32. – P. 21 – 31.
4. Agzamходжаева.С.С. Ижтимоий идеал ва Ўзбекистонда маънавий тараққиёт муаммолари. Автореф. дис. ... докт. фалс.фан. – Тошкент, Фалсафа ва ҳуқуқ институти нашриёти. 2008.-54 б.
5. Миллий истиқлол ғояси асосий тушунчалар, атамалар ва тамойиллар (қисқача изоҳли тажрибавий) луғат. – Т.: Файласуфлар миллий жамияти, 2002. – Б.12-15.
6. Соколовой И.И., А.С. Колесникова «Современная зарубежная компаративная педагогика и философия образования». -М.: ФГНУ ИТИП РАО, Издательский Центр ИЭТ, 2013. – 328 с. – С. 254.
7. Яценко А. Н. Целепологание и идеал. –Киев: Наука, 1977. – 171 с.